Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

MOLIYAVIY FAOLIYATDAN OLINADIGAN DAROMADLARNING HISOBI

Qo‘ziyeva Maftuna Otabek qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Buxgalteriya hisobi kafedrasi assistenti
maftunaotabekovna@gmail.com
Yo‘ldosheva Durdona Zafar qizi
yoldashevad954@gmail.com
Isoqova Sevinch Fozil qizi
isoqovasevinch838@gmail.com
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Bank ishi yo‘nalishi 2-bosqich talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.24348391

Annotatsiya. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida raqobat muhitini kuchayishi sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash asosiy ishlab chiqarish bilan bir qatorda moliyaviy operatsiyalar samaradorligiga ham bevosita bog‘liqdir. Mazkur maqolada korxonalarning moliyaviy faoliyatidan olingan daromadlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibiy tuzilishi, ularni tan olish mezonlari hamda buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi yoritilgan. Shuningdek, foizli daromadlar, dividendlar, valyuta kurslari farqi va moliyaviy ijara daromadlarini hisobga olishning amaliy jihatlari, soliqqa tortish xususiyatlari hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy faoliyati, moliyaviy daromadlar, buxgalteriya hisobi,schyotlar rejasi, dividentlar, foiz daromadlari, ijobiy kurs, moliyaviy ijara, soliqqa tortish, moliyaviy natija.

Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini rag'batlantirish sharoitida korxonalar nafaqat asosiy mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonidan, balki o'z kapitalini samarali boshqarish, bo'sh turgan pul mablag'larini moliya bozoriga yo'naltirish va tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish orqali ham qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Korxonaning yakuniy moliyaviy natijasi — sof foyda hajmi aynan barcha faoliyat turlari bo'yicha olingan daromadlarning to'g'ri va to'liq hisobga olinishiga bog'liq.

Buxgalteriya hisobi tizimida daromadlarni kelib chiqish manbalari va iqtisodiy mazmuniga qarab aniq tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki asosiy operatsion faoliyatdan olingan tushum korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatsa, moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar korxona rahbariyatining moliyaviy menejment, likvidlilikni boshqarish va investitsion qarorlar qabul qilishdagi mahoratini aks ettiradi. Ushbu ikki yo'nalishdagi daromadlarning hisobini aniq yuritish moliyaviy hisobot foydalanuvchilari — aksiyadorlar, banklar, investorlar va soliq organlari uchun obyektiv xulosa chiqarish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston Respublikasining amaldagi buxgalteriya hisobi va soliq qonunchiligi talablari asosida moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarning hisobini yuritish

tartibini tizimli tahlil qilish, amaliyotda uchraydigan muammolarni aniqlash hamda hisob-kitob mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan asoslangan takliflar berishdan iborat.

Materiallar va metodlar.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, Soliq kodeksi, 21-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma", 22-sonli BHMS "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi" hamda mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlanmalari o'rganildi. Maqolada tizimli yondashuv, iqtisodiy guruhlash, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda buxgalteriya modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan olinadigan barcha daromadlari umumiy tarzda asosiy faoliyat daromadlari, moliyaviy faoliyat daromadlari hamda favqulodda foyda tarkibiga ajratiladi. Bunda moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar korxonaning moliyaviy aktivlari, ustav kapitalidagi ishtiroki, qarz munosabatlari va valyuta operatsiyalari natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy nafning o'sishini ifodalaydi.

21-son BHMSga muvofiq, moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni umumlashtirish va hisobga olish uchun schyotlar rejasining 9500-"Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari" guruhi tranzit schyotlari ajratilgan bo'lib, ularning tarkibi va iqtisodiy mazmuni quyidagi jadvalda tizimlashtirilgan:

1-jadval. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarning schyotlar kesimidagi tarkibi

Schyotlar kodi	Schyotning nomlanishi	Daromadlarning shakllanish manbai
9510	Royalti va kapital transfertlar	Intellektual mulk obyektlari (patent, litsenziya, dasturiy ta'minot)dan foydalanish huquqi uchun olinadigan to'lovlar
9520	Dividandlar shaklidagi daromadlar	Boshqa korxonalar ustav kapitalidagi ulushlar hamda aksiyalar bo'yicha taqsimlangan sof foyda ulushi
9530	Olingan foizlar bo'yicha daromadlar	Bank depozitlari, berilgan qarzlar, obligatsiyalar va veksellar bo'yicha hisoblangan foiz summalar
9540	Valyuta kurslari farqidan ijobiy farqlar	Chet el valyutasidagi pul mablag'lari va hisob-kitoblarni Markaziy bank kursi bo'yicha qayta baholash natijasi
9550	Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan daromadlar	Moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo'yicha lizing beruvchiga to'lanadigan ijara to'lovining foiz qismi
9560	Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar	Qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar bozor qiymatining oshishi natijasida yuzaga kelgan farq
9590	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	Yuqoridagi guruhlarga kiritilmagan boshqa moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlar

Ushbu tranzit schyotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, hisobot davri (oy, chorak, yil) mobaynida barcha moliyaviy daromadlar tegishli schyotlarning kreditida jamlanib boriladi va davr yakunida 9910-‘‘Yakuniy moliyaviy natija’’ schyotining kreditiga o‘tkazilib yuboriladi.

Tadqiqot va usullar.

Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyotida moliyaviy daromadlarni tan olishda ikki asosiy tamoyil — hisoblash tamoyili (accrual principle) hamda ehtiyotkorlik tamoyili (prudence) ustuvor hisoblanadi. Hisoblash tamoyiliga ko'ra, daromadlar pul mablag'lari bank hisobvarag'iga haqiqatda kelib tushgan sanada emas, balki ularni olish huquqi vujudga kelgan hisobot davrida tan olinadi.

Xususan, moliyaviy daromadlarning asosiy turlari bo'yicha tan olish va hisobga olish tartibi quyidagi o'ziga xos jihatlarga ega:

- Foiz daromadlari shartnoma shartlariga muvofiq har bir hisobot davri (odatda har oy) yakunida vaqt mutanosibligi asosida hisoblanadi.
- Dividend daromadlari emitent korxona aksiyadorlari yoki ta'sischilarining umumiy yig'ilishi tomonidan sof foydani taqsimlash to'g'risida rasmiy qaror qabul qilingan kunda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.
- Valyuta kurslari farqidan olingan daromadlar chet el valyutasidagi pul mablag'lari, debitorlik va kreditorlik qarzlarini operatsiya sodir etilgan sana hamda har oyning oxirgi sanasidagi Markaziy bank rasmiy kursi bo'yicha qayta baholash yo'li bilan aniqlanadi.
- Moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foiz daromadlari lizing muddati davomida to'lov jadvaliga muvofiq bosqichma-bosqich tan olinadi.
- Royalti daromadlari litsenziya shartnomasi mazmuniga ko'ra mualliflik huquqidan foydalanish davri mobaynida teng ulushlarda yoki sotuv hajmiga nisbatan foizda hisoblanadi.

Tadqiqot davomida korxonalar amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan moliyaviy daromad operatsiyalarining buxgalteriya o'tkazmalari modellashtirildi. Har bir operatsiya bo'yicha dastlab olinadigan daromad summasi debitorlik qarzi sifatida shakllantirilishi, so'ngra pul mablag'lari kelib tushishi bilan ushbu qarzning yopilishi buxgalteriya balansida aktivlar tarkibining shaffof o'zgarishini ta'minlaydi.

Natijalar.

O'tkazilgan tahlillar natijasida moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarning korxona moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sirini amaliy misol asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Faraz qilaylik, ishlab chiqarish korxonasi hisobot choragi davomida quyidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirdi: tijorat bankidagi 500 000 000 so'mlik depozit qo'yilmasi bo'yicha yillik 18 foiz stavkada choraklik 22 500 000 so'm foiz hisoblandi; sho'ba korxonadan 60 000 000 so'm miqdorida dividend e'lon qilindi (to'lov manbaida 5 foiz – 3 000 000 so'm soliq ushlab qolindi) valyuta hisobvarag'idagi 15 000 AQSH dollari qoldig'i kurs o'zgarishi (12 850 so'mdan 12 970 so'mga ko'tarilishi) natijasida 1 800 000 so'm ijobiy kurs farqi keltirdi.

Mazkur xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilish tartibi 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni hisobga olishning buxgalteriya o'tkazmalari

№	Xo'jalik operatsiyasining mazmuni	Debet	Kredit	Summa(so‘m)
1	Bank depoziti bo'yicha choraklik foiz daromadi hisoblandi	4830	9530	22 500 000
2	Hisoblangan foiz summasi korxonaning hisob-kitob schyotiga kelib tushdi	5110	4830	22 500 000
3	Sho'ba korxonadan olinadigan dividend daromadi e'lon qilindi	4840	9520	60 000 000
4	To'lov manbaida ushlab qolingan 5% dividend solig'i aks ettirildi	9810	4840	3 000 000
5	Soliq chegirilgandan so'ng sof dividend summasi hisob-kitob schyotiga tushdi	5110	4840	57 000 000
6	Valyuta schyotidagi qoldiqni qayta baholashdan ijobiy kurs farqi	5210	9540	1 800 000
7	Hisobot davri yakunida jami moliyaviy daromadlar yakuniy natijaga yopildi	9520, 9530, 9540	9910	84 300 000

Keltirilgan hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy faoliyatidan olgan yalpi daromadi 84 300 000 so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2-son shakl)ning tegishli satrlarida aks ettirilib, asosiy faoliyat foydasiga qo'shilgan holda umumxo'jalik faoliyati foydasini shakllantiradi.

Muhokamalar

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hisobini yuritishda nafaqat buxgalteriya o'tkazmalarini to'g'ri shakllantirish, balki soliq qonunchiligi bilan bog'liq nozik jihatlarni ham inobatga olish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, moliyaviy daromadlarning ayrim turlari umumiy tartibda foyda solig'iga bazasiga kiritilsa, ayrimlari bo'yicha maxsus soliq rejimi qo'llaniladi:

- Bank depozitlari va berilgan qarzlar bo'yicha olingan foiz daromadlari hamda valyuta kurslari farqidan olingan ijobiy farqlar korxonaning jami daromadi tarkibiga kiritiladi va foyda solig'iga tortiladi;
- O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslardan olingan dividendlar to'lov manbaida 5 foiz stavkada soliqqa tortilganligi sababli, dividend oluvchi korxona foyda solig'ini hisoblashda ushbu summani soliq solinadigan bazadan chegirib tashlaydi (ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish maqsadida);
- Davlat qimmatli qog'ozlari (obligatsiyalari) bo'yicha olingan foiz daromadlari Soliq kodeksida belgilangan imtiyozlarga muvofiq foyda solig'idan ozod qilinishi mumkin.

Amaliyotda ko'p uchraydigan muammolardan biri — ayrim buxgalterlar tomonidan dividend daromadlarini soliq ushlab qolingandan keyingi sof summa (yuqoridagi misolda 57 000 000 so'm) bo'yicha kredit 9520-schyotga kirim qilinishidir. Bunday yondashuv moliyaviy hisobotda daromadlarning sun'iy ravishda kamayib ko'rinishiga va soliq xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning buzilishiga olib

keladi. Shu bois, dividendlar doimo e'lon qilingan to'liq (brutto) summada daromad sifatida tan olinishi, to'lov manbaida ushlab qolingan soliq esa alohida xarajat yoki soliq hisob-kitobi sifatida aks ettirishi shart.

Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlarida (1C:Buxgalteriya) valyuta moddalarini oy oxirida avtomatik qayta baholash funksiyasi to'g'ri sozlanmagan hollarda ijobiy va salbiy kurs farqlari o'zaro qoplanib (saldolashib) ketish holatlari kuzatiladi. Vaholanki, buxgalteriya hisobi standartlariga ko'ra, ijobiy kurs farqlari alohida daromad (9540), salbiy kurs farqlari esa alohida xarajat (9620) sifatida ochiq ko'rsatilishi lozim.

Xulosalar.

O'tkazilgan tadqiqotlar va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar korxonaning qo'shimcha moliyaviy resurslar manbai bo'lib, uning to'lov qobiliyati va investitsion jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu daromadlar hisobini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, korxonalarda 9500-guruh schyotlari bo'yicha analitik hisobni har bir daromad manbai (har bir depozit shartnomasi, emitent korxona, valyuta turi va lizing obyekti) kesimida alohida subschyotlar ochgan holda yuritish zarur. Bu soliq imtiyoziga ega bo'lgan va umumiy tartibda soliqqa tortiladigan moliyaviy daromadlarni tezkor ajratish imkonini beradi.

Ikkinchidan, dividend daromadlarini buxgalteriya hisobida aks ettirishda ularni to'liq (brutto) summada tan olish hamda to'lov manbaida ushlab qolingan soliq summasini alohida nazorat schyotida qayd etish amaliyotini qat'iy yo'lga qo'yish lozim. Bu "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ko'rsatkichlarining haqqoniyligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda valyuta aktivlari va majburiyatlarini qayta baholash jarayonini to'liq avtomatlashtirish hamda ijobiy va salbiy kurs farqlarini o'zaro saldolamasdan, alohida moddalarda hisobotga kiritish ustidan ichki audit nazoratini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). – Toshkent: "Adolat", 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" (AV tomonidan 23.10.2002-y. 1181-son bilan ro'yxatga olingan).
5. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (22-son BHMS) "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi" (AV tomonidan 21.05.2004-y. 1364-son bilan ro'yxatga olingan).
6. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil va buxgalteriya hisobi. – Samarqand: SamISI nashriyoti, 2024.
7. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi (Darslik). – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2023.

8. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2022.
9. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. – 18th Edition. – John Wiley & Sons, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – https://lex.uz